

1. O'quvchilarni mustaqil ishlari deyilganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqil ishning asosiy turlarini ayting.
3. Dars va darsdan tashqari mustaqil ishlar qanday tashkil etiladi deyilganda nimalarni tushunasiz?
4. Mustaqil ishlashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish ayting.
5. Hozirgi zamon o'qitish texnologiyasi, ahamiyati va darslarining mazmuni, mohiyati.
6. Dars turlari
7. Namunaviy dars rejalari tuzish. O'quv jadvallari tahlili.
8. O'qitish vositalari deyilganda nimalar tushuniladi va ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
9. Darsliklar bilan ishlash qanday yo'nalishlarda olib boriladi?
10. Ko'rsatmalilikdan foydalanishning ahamiyati va maqsadlari nimalardan iborat?
11. Oz komplektli qishloq maktabida o'quv ishini tashkil etishning xususiyatlari nimalardan iborat?
12. Oz komplektli maktabda dars o'tishning taxminiy sxemasini tuzing.
13. Mustaqil ishni yo'lga qo'yish xususiyatlarini nimalardan iborat.
14. O'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlarni raqamlashni o'rganishning asosiy vazifalari qanday?
15. Bolalarni yangi sanoq birligi bilan tanishtirishga bag'ishlangan dars qismini ishlab chiqish qanday amalga oshiriladi?
16. Raqamlashning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
17. O'qituvchining asosiy vazifalari nimada?
18. Matematik masalalar yechishning o'rni va ahamiyati nimadan iborat?
19. O'quvchilar masalalar yechishda qanday malakalarni egallashlari kerak?
20. Masalalar yechish bosqichlarini tahlil qiling.
21. "Yuzlik", "Ko'p xonali sonlar" mavzusidagi murakkab masalalar turlarini ayting.
22. "Noma'lumni ikki ayirmaga ko'ra topishga doir masalalar yechishga o'rgatish" ga doir darsni ishlab chiqing.
23. Masalalar yechishda yo'l qo'yiladigan xatoliklar oldini olishga doir tayyorgarlik ishlari qismini bajaring.
24. Arifmetika metodikasining yaratilishi haqida ma'lumotlar to'plang.
25. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining vujudga kelish holati.
26. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasida Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishni qanday tushunasiz?
27. XXI asrda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining taraqqiyoti haqida.
28. Matematika boshlang'ich kursiga algebra elementlarini kiritishdan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?

29. Sonli ifodalar deb nimaga aytiladi.
30. Sonli ifodalar, o'zgaruvchan ifoda tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan dars bo'lagini ishlab chiqing.
31. Matematika boshlang'ich kursiga algebra elementlarini kiritishdan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?
32. Tenglama va tengsizlik tushunchalarini shakllantiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqing.
33. Sonli ifodalar, o'zgaruvchan ifoda tushunchalarini shakllantirishga qaratilgan dars bo'lagini ishlab chiqing
34. Geometrik materialni o'rganishda qanday asosiy metod va vositalardan foydalaniladi?.
35. O'quvchilarni geometrik materiallar bilan tanishtirishga bag'ishlangan darslardan bir nechatasini ishlab chiqing.
36. 1–4 sinf matematika darsligida berilgan geometrik materiallar joylashtirilishi haqida ijodiy fikrlaringizni yozing.
37. Geometrik materialni o'rganishda qanday asosiy metod va vositalardan foydalaniladi?.
38. O'quvchilarni geometrik materiallar bilan tanishtirishga bag'ishlangan darslardan bir nechatasini ishlab chiqing.
39. 1–4 sinf matematika darsligida berilgan geometrik materiallar joylashtirilishi haqida ijodiy fikrlaringizni yozing.
40. Paletka deb nimaga aytiladi
41. Figuraning yuzi va yuza o'lchov birliklari haqida gapirib bering
42. Geometrik materiallarni o'qitishning mohiyati aytilg
43. Matematik masalalar yechishning o'rni va ahamiyati nimadan iborat?
44. O'quvchilar masalalar yechishda qanday malakalarni egallashlari kerak?
45. Masalalar yechish bosqichlarini tahlil qiling.
46. O'quvchilar masalalar yechishda qanday malakalarni egallashlari kerak?
47. Masalalar yechish bosqichlarini tahlil qiling .
48. Yechimini bajarish, rasmiylashtirish va masala savoliga jabob berish malakasi.
- 49.** Ko'p xonali sonlar" mavzusidagi murakkab masalalar turlarini ayting
50. Harakatga doir masalalar.
51. Ma'lum tezlik va masofaga ko'ra harakat vaqtini topishga doir masalalar
52. Ulushlar bilan tanishtirishga doir dars bo'lagini ishlab chiqing.
53. Turli figuralarni teng bo'laklarga bo'lish holatlarini asoslang.
54. Kasrlarni o'rganishga doir masalalar tuzing.
55. Oddiy kasr deb nimaga aytiladi.
56. Turli figuralarni teng bo'laklarga bo'lish holatlarini asoslang.
57. Kasrlarni o'rganishga doir masalalar tuzing.

58. To'g'ri burchakli parallelepiped deb nimaga aytiladi.
59. Ko'pyoq bilan tanishtirish.
60. Kub va uning elementlari tanishtirish metodikasituzing.
61. Arifmetika metodikasining yaratilishi haqida ma'lumotlar to'plang.
62. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining vujudga kelish holati.
63. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasida Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanishni qanday tushunasiz?
64. XXI asrda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining taraqqiyoti haqida.
65. Математика тарихининг дастури нималардан иборат?
66. Математика тарихининг услуби нимлардан иборат?
67. Математикани ривожлантирувчи кучлар ва унинг бошка фанлар билан алоқасини таърифлаб беринг.
68. Математика тарихини билишнинг аҳамияти ва ролини мисолларда баён этинг.
69. Математика тарихини ривожлантириш даврларини изоҳлаб беринг.
70. Toshkent va Samarqand shaharlaridan ikkita poezd bir biriga qarab

yulga chiqdi. Poezdlardan biri uchrashguncha 78 km ni, ikkinchisi esa birinchiga qaraganda 3 marta ortiq yo'l yurdi. Shaharlar orasidagi masofa qancha? Birinchi poezd uchrashguncha ikkinchisidan necha kilometr kam yul yurgan?

71. Vertolyot 180 km/soat tezlik bilan 5 soat uchdi. Qaytishda bu masofani 6 soatda uchib o'tdi. Vertolyot qaytishda qanday tezlik bilan uchgan.
72. Piyoda va velosipedchi bir vaqtda bir qishloqdan bir hil yo'nalishda yo'lga chiqdi. Piyodaning tezligi 4 km/soat, velosipedchining tezligi undan 3 marta ortiq. 2 soatdan keyin velosipedchi piyodadan necha kilometr masofada bo'ladi?
73. Poezd shu yo'lni 6 soatda bosib o'tishi uchun tezligini necha km/soatiga oshirishi kerak?

Poezd _____ 9 soat _____ vokzal
 ← 432 km →

74. Yuk mashinasi 5 soatda 200km yo'l bosgandan keyin, yana 100 km yo'l qoldi. Agar u tezligini soatiga 10 km ga oshirsa, qolgan yo'lni qancha vaqtda bosib o'tadi ?
 75. Ikki shahardan bir vaqtda ikki poezd yo'lga chiqdi. Ular 7 soatdan keyin uchrashdilar. Ikkinchi poezdning tezligini toping.
-
76. Ikki shahar orasidagi masofani mototsiklchi 35 minutda, velosipedchi esa 3 soat 10 minutda bosib o'tdi. Velosipedchi mototsiklchiga qaraganda qancha ko'p vaqt sarflagan?

77. Otabek 7 soat 25 minut, uning singlisi 9 soat 15 minut, uxladi singlisi Otabekdan qancha ko'p uxlagan ?
78. Qishloqqa toza ichimlik suvi keltirish uchun 3 km 200m quvur yotqizildi. SHundan keyin yana undan 2 marta uzun masofaga quvur yotqizish kerak. Qishloqqa suv keltirish uchun jami necha metr quvur yotqizish kerak bo'lgan?
79. Maktab mahmudning uyidan 1 km 200m masofada joylashgan. Mahmud bir haftada maktabga borib kelish uchun qancha masofani bosib o'tadi.
80. Yuk mashinasi 8 soatda 280 km yo'l yurdi. Yengil mashina esa bu masofani 4 soatda bosib o'tdi. Yuk mashinasining tezligi yengil mashina tezligidan qancha kam?
81. Yuk mashinasi 40 km/soat tezlik bilan 4 soat yurdi. Yuk mashinasi qancha masofani bosib o'tdi?
82. Samolyotning tezligi 450 km/soat. U 6 soatda qancha masofani uchib o'tadi?
83. Velosipedchi shahardan qishloqqa 16 km/soat tezlik bilan 3 soatda yetib keladi. Shaharda qishloqqacha bo'lgan masofani aniqlang?
84. Asalari gulzorga qancha vaqtda yetib boradi?

560



7 m /sek

15. 60 km masofani birinchi velosipedchi 12 km/ soat, ikkinchi velosipedchi esa 15km/ soat tezlik bilan bolib o'tdi. Birinchi velosipedchi ikkinchi velosipedchiga qaraganda qancha.
16. It tulkini quvlashni boshlaganida, ular orasidagi masofa 120 m edi. Agar it 250 m/min tezlik bilan, tulki esa 220 m/min tezlik bilan chopayotgan bo'lsa, it qancha vaqtdan keyin tulkiga yetib oladi?
85. Mototsiklchi 210 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. U qanday tezlik bilan yurgan?
86. Shahardan qishloqqacha bo'lgan masofa 12 km. Sayohatchi 5 km/soat tezlik bilan 2 soat yurdi. U qishloqqa yetishi uchun yana qancha yo'l yurishi kerak?
87. Yuk poezdi 62 km/ soat tezlik bilan 7 soat yo'l yurdi. SHundan keyin manzilga yetish uchun yurgan yo'lidan 2 marta ortiq yo'l qoldi. Poezd hammasi bo'lib necha kilometr yo'l yurishi kerak?
88. Sekundiga 8 km tezlik bilan raketa 576000 km masofani necha soatda bosib o'tdi ? U qancha minutga teng?
89. Avtobus 180 km masofani 3 soatda bosib o'tdi. Qaytishda shu masofani 2 soatda bosib o'tishi uchun avtobus tezligini qanchaga oshirishi kerak:

90. 2 soatdan keying mashinalar orasidagi masofa qancha bo'ladi? Kemalar orasidagi masofa necha kilometr?

91. «Tiko» avtomobili 1 soatda 70 km yo'l yurdi. U shunday tezlik bilan 2 soatda necha kilometr yo'l yuradi? 3 soatda-chi?

92. 3 soatda bosgan yo'li: $70 \cdot 3 = 210$ (km) bo'ladi. «Avtomobil 1 soatda 70 km yo'l yurdi» deyish o'rniga «Avtomobilning tezligi soatiga 70 km» yoki avtomobil 70 km/soat tezlik bilan harakatlanyapti deyish ham mumkin.

93. Gulchehra 1 soatda 4 km yo'l o'tadi. Shunday tezlik bilan 2 soatda necha kilometr yo'l bosadi? 3 soatda-chi? 4 soatda-chi? 30 minutda-chi?

94. Poyezd 56 km/soat tezlik bilan ketyapti. U a) 2 soatda; b) 5 soatda necha kilometr yo'l o'tadi?

95. «Neksiya» avtomobili 90 km/soat tezlik bilan yurmoqda. Uning 1 minutda, 10 minutda, 15 minutda, yarim soatda o'tgan yo'lini toping.

96. Nodira 1 soatda 3 km yo'l yuradi. U shunday tezlik bilan yursa, 6 km masofani qancha vaqtda o'tadi?

97. Toshkent va Jizzax shaharlari orasidagi masofa 330 km. Avtobus soatiga 55 km tezlik bilan yursa, bu masofani necha soatda o'tadi?

98. Kamolaning uyidan maktabgacha 1 km. Kamola 1 soatda 4 km yuradi? U uyidan maktabga qancha vaqtda boradi?

99. Toshkent va Nukus orasidagi masofa 1200 km bolsa, samolyot 600 km/soat tezlik bilan uchib, qancha vaqtda Nukusga yetib boradi?

100. Katerning daryo oqimi bo'yicha tezligi 21 km/soat, oqimga qarshi tezligi 15 km/soat. Katerning turg'un suvdagi tezligini va daryo oqimining tezligini toping.

101. Kater daryo oqimi bo'ylab 60 km masofani o'tish uchun 4 soat sarfladi. Oqimga qarshi o'sha masofani bosish uchun 5 soat sarfladi. Daryo oqimining tezligini toping.

102. Daryo bo'yida joylashgan ikki qishloq orasidagi masofa 48 km. Kater bu masofani oqim bo'yicha 2 soatda va oqimga qarshi 3 soatda bosib o'tdi. Bu masofani sol necha soatda o'tadi?

103. Zarur hisoblashlarni baj arib, j advalni toldiring:

Katerning turg'un suvdagi tezligi (km/soat)	Daryo oqimining tezligi (km/soat)	Katerning oqim bo'ylab tezligi , (km/soat)	Katerning oqimga qarshi tezligi (km/soat)

104. Kemaning turg'un suvdagi tezligi 16 km/soat, daryo oqimining tezligi 2 km/soat. Kemaning oqim bo'ylab va oqimga qarshi tezligini toping.

105. Velosipedchi 4 soatda 40 km yo'l yurdi. Qaytishda uning tezligi soatiga 2 km ga kam bo'ldi. Qaytishga u necha soat sarfladi?

106. Qayiq 6 soatda 66 km masofani suzib o'tadi. Agar qayiqning tezligi 4 km/soatga kamaysa, ushu vaqt ichida necha kilometr masofani bosib o'tadi?

107. Toshkent va Samarqand shaharlari orasidagi masofa 300 km gating. Agar poyezd 60 km/soat tezlik bilan yursa, u bu masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?

108. Vertalyot 4 soat 200km/soat tezlik bilan, 2soat 230 km/soat tezlik bilan uchdi. U shu vaqt ichida qancha masofani uchib o'tdi? Vertalyot dastlabki tezlik bilan necha kilometr ko'p masofani uchib o'tdi?

109. Avtomobil yo'lda 4 soat bo'ldi va 240 km masofani bosib o'tdi. Yuk mashinasi yo'lda 3soat bo'ldi va 120 km masofani bosib o'tdi. Avtomobilning tezligi yuk mashinasining tezligidanqancha ortiq?

110. Mashina tushgacha 2 soat yurdi. Tushdan keyin esa shunday tezlik bilan yana 4 soat yurdi. U hammasi bo'lib 300 km yo'l yurdi. Mashina tushgacha necha kilometr va tushdan keyin necha kilometr yurgan?

111. Mototsiklchi 4 soatda 240 km masofani bosib o'tdi. Agar mototsiklchi tezligini 8 km/soatga oshirsa, u shu vaqt ichida qancha masofani bosib o'tadi?

112. Yo'lovchi avtobusda 90 km yo'l yurdi. Agar avtobus 45 km/soat tezlik bilan yursa, yo'lovchi necha soat yo'lda bo'lgan?

Tezlik	Vaqt	Masofa
45 km/soat	?	90 km

113. Sayyohlar qayiqda 52 km suzishdi. Dastlabki 4soatda yo'lni 7 km/soat tezlik bilan, qolgan yo'lni esa 8 km/soat tezlik bilan o'tishdi. Sayyohlarni yo'lda hammasi bo'lib qancha vaqt bo'lganlar?
114. Toshkent va Samarqand shaharlari orasidagi masofa 300km ga teng. Agar poyezd 60 km/soat tezlik bilan yursa, u bu masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?
115. Ikki qishloqdan bir vaqtda bir-biriga qarabikki piyoda yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin uchrashdi. Ulardan biri 3 km/soat tezlik bilan, ikkinchisi esa 4 km/soat tezlik bilan yurdi. Qishloqlar orasidagi masofa qancha?
116. Ikki shahardan bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi va soatdan keyin uchrashdilar. Birinchi poyezdning tezligi 50 km/soat, ikkinchisining 70 km/soat. Ikki shahar orasidagi masofani toping.
117. Oralaridagi masofa 90 km bo'lgan ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki velosipedchi yo'lga chiqdi. Bir velosipedning tezligi 8 km/soat, ikkinchisining tezligi 10 km/soat. Velosipedchilar necha soatdan keyin uchrashadi?
118. Oralaridagi masofa 44 km bo'lgan ikki qishloqdan bir vaqtda bir-biriga qarab ikkivelosipedchi yo'lga chiqdi va 2 soatdan keyin uchrashadi. Ulardan birining tezligi 12km/soat. Ikkinchisining tezligini aniqlang.
119. Ikki shahardan bir-biriga qarab bir vaqtda ikki velosipedchi yo'lga chiqdi. Uchrashguncha birinchisi 24 km, ikkinchisi esa 2 marta ko'p masofani bosib o'tdi. Quyidagi ifodalar nimani bildiradi?
- 1) $24 \cdot 2$ 2) $24 \cdot 2 + 24$ 3) $24 \cdot 2 - 24$
120. Farg'ona va Qo'qon shaharlari orasidagi masofa 170 km. Bu shaharlardan bir-birlariga qarabbir vaqtda ikki mototsiklchi yo'lga chiqdi. Birinchi mototsiklchi butun yo'lni o'ndan bir qismini, ikkinchisi beshdan bir qismini bosib o'tdi. Shu vaqtda ular uchrashadimi? Agar uchrashmasa, ular shu vaqtda bir-birlaridan qanday masofada bo'lgan?
121. Termiz va Denov shaharlari orasidagi masofa 180km. Bu ikki shahardan bir-birlari tomon bir vaqtda ikki avtobus yo'lga chiqdi. Avtobuslardan biri butun yo'lni yamini, ikkinchisi esa butun yo'lni uchdan bir qismini o'tgan paytda avtobuslar orasidagi masofa qancha bo'ladi?
122. Qishloqdan shaharga qarab piyoda va u bilan bir vaqtda shahardan qishloq tomon velosipedchi yo'lga chiqdi. Qishloq bilan shahar orasidagi masofa 34 km. Piyoda bilan velosipedchi esa 2 soatdan keyin uchrashdipiyoda 4 km/soat tezlik bilan yurgan bo'lsa, velosipedchining tezligini toping?

123. Ikki shahardan bir vaqtda bir-biriga qarab ikki poyezd yo'lga chiqdi va 4 soatdan keyin uchrashdilar. Birinchi poyezdning tezligi 50 km/soat, ikkinchisniki 70 km/soat. Ikki shahar orasidagi masofani toping?

124. Ikki poyezd bir vaqtda bir-biriga qarab uo'lga chiqdi. Birinchi poyezd 70 km/soat, ikkinchisi 60 km/soat tezlik bilan yurdi. Ikkinchi poyezd uchrashguncha 180 km yo'lni bosib o'tdi. Birinchi poyezd uchrashguncha qancha mosofa bosib o'tgan?

Ikki poyezd bir-biriga qarab yo'lga chiqdi		
1-poyezd	70 km/soat	?km
2-poyezd	60 km/soat	180km

125. Bo'ri va quyon bir vaqtda bir nuqtadan qarama-qarshi tomonlarga yugurib ketdi. Agar bo'ri tezligi 40 km/soat bo'lsa, ular 1 soatda bir-birlaridan necha kilometr uzoqlashadi?

126. Stansiyadan ikkita elektropoyezd bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi. Birinchi elektropoyezdning tezligi 80km/soat, ikkinchisining tezligi undan 5 km/soat kam. 3 soatdan so'ng ular orasidagi masofa necha kilometr bo'ladi?

127. Temiryo'l stansiyasidan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikkita yuk poyezdi yo'lga chiqdi. Agar birinchi poyezd 50km/soat tezlik bilan harakat qilsa, 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

128. Bir manzildan bir vaqtda qarama-qarshi yo'nalishda ikki piyoda yo'lga chiqdi. Birining tezligi 4km/soat, ikkinchisniki 5 km/soat. 2 soatdan so'ng piyodalar orasidagi masofa qancha bo'ladi?

129. Toshbaqa va shilliqqurt qarama-qarshi tomonga harakat qilyapti. Agar toshbaqaning tezligi 22sm/min , shilliqqurtning tezligi 14sm/min bo'lsa, 2 minutdan keyin ular orasidagi masofa qancha bo'ladi?

130. Bir qishloqdan ikki otliqbir vaqtda qarama-qarshiyo'nalishda yo'lga chiqdi. Bu otliqlardan birining tezligi 14km/soat, ikkinchisining tezligi 12km/soat. Otliqlar 4 soat yo'lda bo'lsalar, oradagi masofani toping?

131. Ikkita poyezd bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. 1-poyezdning tezligi 65km/soat, 2-poyezdning tezligi 70 km/soat. Agar uchrashguncha 2-poyezd 280 km yurgan bo'lsa, 1-poyezd qancha yo'l yurgan?

132. Ertalab soat 10 da temiryo'l vokzalidan qarama-qarshi yo'nalishda ikkita poyezd yo'lga chiqdi va soat 13da ular orasidagi masofa 330 km bo'ldi. Agar poyezdlardan birining tezligi 50 km/soat bo'lsa, ikkinchi poyezdning tezligini toping.
133. Ikki piyoda bir vaqtda bir qishloqdan qarama-qarshi yo'nalishda yo'lga chiqdi va 3 soatdan keyin ular orasidagi masofa 33km bo'ldi. Agar piyodalardan birining tezligi 5km/soat bo'lsa, ikkinchisining tezligini toping?
134. Bir shahardan qarama-qarshi yo'nalishda bir vaqtda Matiz va Malibu avtomashinalari yulga chiqdi. Matizning tezligi 60km/soat. Ikki soatdan keyin ular orasidagi masofa 320km bo'ldi. Malibuning tezligi qancha?